

### MOBIL INVENTARIZATSIYA

**Shukrullayev Shamsiddin Po`latjon o`g`li**

Andijon mashinasozlik instituti Intellektual muhandislik tizimlari yo`nalishi talabasi

Ushbu maqola tayyor va yarimtayyor mahsulotlarni inventarizatsiya jarayonini avtomatlashtirish va sanoqdan o`tkazish jarayoniga asoslanagan. Bizning bu loyihamizda mobil ilova yordamida mahsulotlarni sanoqdan o`tkazib uning ma`lumotlarini serverga yetkazishdan iboratdir. Ushbu platforma ilova ko`rishda bo`lib vazifasi inventarizatsiya jarayoni ya`ni ombordagi yarim tayyor mahsulotlarni sanog`ini bilish uchun QR kodlar va shtrix kodlarni skaner qilish orqali mahsulotlarning umumiyligi ma`lumotlarini ma`lumotlar bazasiga to`plab borishdan iborat.

Inventarizatsiya tizimi – mavjud bo`lgan xomashyo, materiallar yoki tayyor mahsulotlar miqdori to`g`risida hisobot beradigan kuzatuv tizimi. Bu kerakli miqdordagi materiallarni, kerakli sifatda, kerakli joyda o`z vaqtida bo`lishini ta`minlaydi. Keyingi kun uchun nima borligini bilish uchun mahsulot har safar sotilganda yoki mahsulot ishlab chiqarishda xomashyo ishlatilganda ushbu tizim yangilanadi. Shuningdek, bu sizga har doim kerakli hamma narsaga ega bo`lishingiz uchun mahsulotlarga oldindan buyurtma berishga imkon beradi.[1]. Odamlar inventarizatsiya tizimi haqida o`ylashganda, uni chakana savdo bilan bog`lash odatiy holdisssr. Biroq do`konlar muvaffaqiyatli ishlashi uchun samarli inventarizatsiya tizimini talab qilishiga qaramay, u ko`plab boshqa korxonalarda, masalan, ishlab chiqarish, kommunal xizmatlar, sog`liqni saqlash, hukumat va ta`lim sohasida qo`llaniladi. Ta`minot zanjirining bir qismi sifatida inventarizatsiya tizimi xaridlarni nazorat qilish, zaxiralarni saqlashni ta`minlash, sotiladigan mahsulotlar sonini nazorat qilish kabi jihatlarni o`z ichiga oladi.

Inventarizatsiya tashkilotning mol-mulki mavjudligini va uning moliyaviy majburiyatlarining holatini ma`lum bir sanada faktik ma`lumotlarni buxgalteriya ma`lumotlari bilan taqqoslash orqali tekshirish. Bu mulkiy qadriyatlar va mablag'larning xavfsizligini amalda nazorat qilishning asosiy usuli hisoblanadi[2].


Mobil inventarizatsiya loyihaga bo`lgan ehtiyoj va talab barcha tashkilotlarda, ta`lim muassasalarda, ishlab chiqarish korxonalarida yuqori. Ya`ni Oliy ta`lim muassasalarini misol qiladigan bo`lsak, har yili universitetlarga va institutlarga kerakli jihozlar (kompyuter, stol-stul, javon, va hokozolar) keltiriladi va ular kop hollarda inventarizatsiya jarayonidan o`tkazilmaydi buning oqibatida mahsulotlar yo`qolishi, hisobi chiqmasligi mumkin biz buning oldini olish maqsadida ushbu loyhani ishlab chiqishga qaror qildik.

## VOLUME-2, ISSUE-4

Oliy ta`limga yana bir foyda tomoni shundan iboratki oraliq nazoratlari va yakuniy nazorat ishlariga inventarizatsiya jarayonini qo`llamoqchimiz. Yani nazorat ishlari tekshirilgandan so`ng uni natijasi skaner qilinadi va ballar excel formatda dekanat bazasiga tushadi. Ishlab chiqarish korxonalarida, MCHJ larda bu loyhaga extiyoj yuqoridir. Biz bu loyihani dastlab o`z viloyatimiz miqyosida targ'ib qilamiz. So`ng butun O`zbekistondagi ta`lim muassasalar, davlat tashkilotlar, avto sanoatlar, turli korxonalar va sexlar uchun targ'ib qilamiz[3].

Bu loyihaning asosiy mijozlari va foydalanuvchilari ishlab chiqarish korxonalari, zavodlar, sexlar, ta`lim muassasalari vahokozolar hisoblanadi. Shuning uchun ham loyihani boshlashdan oldin bir necha ishlab chiqarish korxonalari bilan gaplashilgan va ularning taklif va talablari o`rganilgan shu taklifdan kelib chiqgan holda ushbu loyiha ishlab chiqariladi.


Mobil ilovanining ko`rinishi taxminan shunday ko`rnishda bo`ladi.



Ilova ochiladi



Belgilamgan joy  
skanerlan



Ma`lumotlar yig`iladi  
va saqlanadi

Ushbu loyiha ishlab chiqilgandan so`ng tegishli tartibda davlat ro`yxatidan o`tkaziladi. Tegishli tashkilotga ma`qul kelib, tasdiqdan o`tsa Respublika miqyosida joriy etilishi mumkin. Chunki hozirgi kunda jarayonlarini avtomatlashtirish va identifikatsiyalashtirish eng dolzarb masalalardan biri bo`lib kelmoqda. Hamda hozirgi kunda barcha ishlab chiqarish korxonalari avtomatlashtirilib borilmoqda. Ushbu platforma ish jarayoni ancha yengilashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari IT sohasiga qaratilgan e'tibor va imkoniyatlar loyihaning rivojlanishiga va yaxshi natijaga erishishiga asos bo`la oladi[4].

## VOLUME-2, ISSUE-4

Kutilayotgan natijalarga keladigan bo'lsak kelgusi yil bahorga qadar O'zbekistondagi 10 ga yaqin avto sanoat korxonalari va turli muassasa, tashkilot, fabrikalarni avtomatlashtirish.

Mobil inventarizatsiyani avtomatlashtirish va boshqarish tizimi uzoq vaqt davomida muvaffaqiyatli ishlashni rejalashtirgan har bir korxona uchun zarur. Axir, bu sizga zaxiralarni nazorat qilish va to'ldirish funktsiyasini amalga oshirishga imkon beradi. Strukturaviy element sifatida avtomatlashtirish vositalari muhim rol o'ynaydi. Ishonch bilan aytalarni olamizki, ular asta-sekin takomillashtiriladi va kelajakda biz korxonaning ushbu tarkibiy qismini faqat sozlash kerak bo'lgan avtonom tizim sifatida ko'rishimiz mumkin. U mustaqil harakatlarni amalga oshirishi mumkin.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nikol Pontius (2019). Inventarizatsiyani boshqarish tizimlarining 4 turi: doimiy va boshqalar. Zahiralarni davriy nazorat qilish va ularni qo'llab-quvvatlaydigan zahiralarni boshqarish tizimi. Kamera. Olingan.camcode.com
2. Business Jarhons (2019). Zahiralarni boshqarish tizimi. Olingan:businessjargons.com
3. Akhmadjonovich, S. D. (2022). Socio-Economic Aspects of Management Quality. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 394–398.
4. Автоматизация процессов машиностроения / под ред. А. И. Дащенко, — М. : Высш. шк., 1991. — 480 с.